




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-IYUL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- avgust holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 34 284 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 7 010 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,4 % i Toshkent shahrida joylashgan.

2023- yil 1-avgust holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda




Toshkent sh.	7 010
Farg‘ona	2 884
Toshkent	2 852
Qashqadaryo	2 675
Buxoro	2 599
Samarqand	2 459
Surxondaryo	2 436
Andijon	2 112
Qoraqalpog‘iston R.	1 817
Xorazm	1 724
Namangan	1 631
Jizzax	1 564
Navoiy	1 434
Sirdaryo	1 087



Fuqarolik obyektlarini
qurish



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari




Bino va inshootlar
qurilishi


Shuningdek, Toshkent shahrida 7 010 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 20,4 %), Farg‘ona viloyatida – 2 884 ta (8,4 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyul uchun)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 80 489,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi.




Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so‘m va foizda




2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (19 371,7 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (7 618,3 mlrd. so‘m) va Farg‘ona viloyatida (5 466,2 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,3 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,5 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,2 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 135,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,1 % i yoki 55 592,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

15 833,3
mlrd. so‘m

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 15 833,3 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 28,5 % ni tashkil etdi.

28,5 %

27 749,4
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 27 749,4 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 49,9 % ni tashkil etdi.


49,9 %

12 009,6
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 12 009,6 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,6 % ni tashkil etdi.

21,6 %

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (11 112,7 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (4 332,0 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (3 804,9 mlrd. so'm) va Buxoro viloyatida (3 790,4 mlrd. so'm) qayd etildi.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **54 956,6 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,8 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 49,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga ko‘payib, 25,5 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*

Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 82,8 % i), Navoiy viloyati (76,9 %) va Surxondaryo viloyati (76,3 %)da kuzatildi.



Jizzax viloyati
82,8 %




Navoiy viloyati
76,9 %



Surxondaryo viloyati
76,3 %

**2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha**

Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,1 % (4,0 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda




Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 71,0 % i), Sirdaryo viloyati (37,6 %) va Xorazm viloyati (27,1 %)da kuzatildi.



71,0 %
Samarqand viloyati



37,6 %
Sirdaryo viloyati



27,1 %
Xorazm viloyati

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm

1 685,0

mlrd. so'm

Yirik qurilish tashkilotlari

2022- yilning mos davriga nisbatan

92,7 %

6 544,8

mlrd. so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- yilning mos davriga nisbatan

153,4 %



20,5 %

Jamiga nisbatan ulushi



79,5 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,4 % punktga kamaydi va 20,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 79,5 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,4 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda


Ma'lumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 18,7 % i), Toshkent shahri (18,2 %) va Toshkent viloyatida (15,2 %) kuzatildi.



18,7 %
Namangan viloyati




18,2 %
Toshkent sh.



15,2 %
Toshkent viloyati

2023- yilning yanvar-iyul oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

95,4 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

109,6 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

103,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi

26,2 %

2022- y.

23,7 %

2023- y.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 19 075,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,5 % ga kamayib, 27,3 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Qashqadaryo viloyati



Toshkent sh.



Fargʻona viloyati

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,5 % i), Toshkent shahrida (23,8 %) va Fargʻona viloyatida (20,7 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi

56,8 %

2022- y.

58,9 %


2023- y.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,9 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil etgan holda 47 373,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m




Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Toshkent viloyati



Samarqand viloyati

Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (13 068,0 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (4 284,4 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatiga (4 120,1 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi

17,0 %

2022- y.

17,4 %


2023-y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 17,4 % ni yoki 14 040,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi. Shundan 10 333,0 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1 676,6 mlrd. soʻmni va 89,9 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 2 031,2 mlrd. soʻmni va 107,6 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



1 788,9 mlrd. soʻm
Toshkent viloyati



1 695,5 mlrd. soʻm
Toshkent shahri



1 617,1 mlrd. soʻm
Buxoro viloyati

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (1 788,9 mlrd. soʻm), Toshkent shahrida (1 695,5 mlrd. soʻm) va Buxoro viloyatida (1 617,1 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyul oylaridagi hajm, mlrd. so'mda

2019-y.



2 131,9



38 698,6

2020-y.



2 213,7



47 895,2

2021-y.



2 959,2



54 735,2

2022-y.



1 957,6



68 769,9

2023-y.



2 378,7



78 111,2

Davlat mulkchiligi

Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 2 378,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 78 111,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 3,0 % va 97,0 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,7 % i), Surxondaryo viloyatida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,5 % i) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 97,9 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 71 203-80-00 (1161)